INKLYUZIV TA'LIM ISLOHOTLARI

Vol 1 № 2 2026

Yuqori sinf adabiyot darslarida adabiy janrlarni integratsion yondashuv asosida o‘rgatish metodikasi

Sayfiddinova Diyora G ‘ofurjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Tel: +998 97 370 75 05

Diyorasayfiddinova28@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada yuqori sinf adabiyot darslarida adabiy janrlarni o‘rgatishda integratsion yondashuvning nazariy-metodik asoslari yoritiladi. Fanlararo integratsiya orqali adabiy janrlarning mohiyatini chuqur anglash, o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, adabiyot darslarida tarix, san’at, tilshunoslik fanlari bilan integratsiya asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlarning samaradorligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: adabiy janr, integratsion yondashuv, fanlararo bog‘lanish, adabiyot ta’limi, metodika, yuqori sinflar.

Annotation. This article examines the theoretical and methodological foundations of the integrative approach to teaching literary genres in upper secondary school literature classes. Through interdisciplinary integration, the essence of literary genres is deeply comprehended, and conditions are created for the development of students’ independent and critical thinking skills. At the same time, the effectiveness of integrative lessons organized in literature classes through connections with history, art, and linguistics is demonstrated.

Keywords: literature, genre, integrative approach, interdisciplinary connection, literary education, methodology, upper grades.

Inklyuziv ta'lim islohotlari

Kirish.

Bugungi kunda ta'lim tizimida integratsion yondashuv asosida darslarni tashkil etish muhim pedagogik talabga aylanmoqda. Ayniqsa, adabiyot ta'limida adabiy janrlarni o'rgatishda faqat nazariy ma'lumot bilan cheklanib qolish o'quvchilarning badiiy tafakkurini to'liq rivojlantira olmaydi. Shu sababli adabiy janrlarni o'qitishda fanlararo integratsiya asosida yondashish zarurati yuzaga kelmoqda. Yuqori sinf adabiyot darslarida *epik, lirik* va *dramatik* janrlarni integratsion yondashuv asosida o'rgatish o'quvchilarning adabiy bilimlarini tizimlashtirish, tarixiy va estetik tafakkurini boyitishga xizmat qiladi, hamda darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Mazkur maqolaning maqsadi — adabiy janrlarni integratsion yondashuv asosida o'rgatish metodikasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishdan iborat.

Dastlab ***"integratsiya"*** va ***"integratsion yondashuv"*** tushunchalariga izoh bersak. Integratsiya — bu turli qismlar, yo'nalishlar, fanlar yoki elementlarni o'zaro bog'lab, bir butun tizimga keltirish jarayonidir. So'z lotincha "integratio" — to'ldirish, tiklash, yaxlitlash ma'nolaridan kelib chiqqan. Integratsion yondashuv — ta'lim jarayonini fanlararo aloqalar va metodlar uyg'unligi asosida tashkil etishga qaratilgan pedagogik yondashuvdir.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda integratsion yondashuv ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning muhim metodologik asosi sifatida e'tirof etiladi. Ta'limda integratsiya masalasi ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Pedagog olim V.S. Lednev integratsiyani ta'lim mazmunining ichki yaxlitligini ta'minlovchi jarayon sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, fanlararo integratsiya o'quvchilarda olamning yaxlit manzarasini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu qarash adabiyot fanini boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uyg'un holda o'qitish zaruratini asoslaydi. Yu.K. Babanskiy ta'lim jarayonini optimallashtirishda integratsion yondashuvning ahamiyatini alohida qayd etib, dars jarayonida turli metod va vositalarning uyg'unlashuvi o'quvchilarning bilish faolligini oshirishini ta'kidlaydi. Bu jihatdan adabiyot darslarida janrlarni integratsiya asosida o'rgatish dars samaradorligini oshiruvchi muhim

inklyuziv ta'lim islohotlari

omil hisoblanadi.O‘zbek pedagog olimlaridan N. Saidahmedov integratsion ta’limni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim tarkibiy qismi sifatida baholaydi. Uning fikricha, fanlararo bog‘liqlik o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan birga, bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llashga o‘rgatadi. Shuningdek, metodist olima G‘. Xudoyberganova adabiyot ta’limida integratsion yondashuv estetik tafakkurni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab, badiiy asarlarni tarixiy-madaniy kontekstda tahlil qilish o‘quvchilarning adabiy janr mohiyatini chuqur anglashiga yordam berishini qayd etadi.

Yuqoridagi olimlar qarashlari shuni ko‘rsatadiki, integratsion yondashuv adabiyot darslarida adabiy janrlarni o‘rgatishda nafaqat nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o‘quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Adabiy janr — adabiyotshunoslikning muhim kategoriyalaridan biri bo‘lib, badiiy asarlarning mazmuni, shakli va ifoda uslubiga ko‘ra tasniflanishini anglatadi. Adabiyotshunoslikda adabiy janrlar an’anaviy ravishda uch asosiy turga bo‘linadi: *epik*, *lirik* va *dramatik* janrlar.

Epik janrlarda voqea-hodisalar bayoni ustun bo‘lsa, lirik janrlarda muallifning ichki kechinmalari va hissiy holati ifodalanadi. Dramatik janrlar esa sahna talqini, dialog va konfliktga asoslanadi. Ushbu janrlarni o‘rganishda ularning tarixiy shakllanishi, ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog‘liqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan shu jihatlar integratsion yondashuv orqali samarali ochib berilishi mumkin.

Yuqori sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari ularning mustaqil fikrlashga moyilligini kuchaytiradi. Shu bois adabiy janrlarni integratsion yondashuv asosida o‘rgatishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali hisoblanadi:

1. Tarix fani bilan integratsiya

Adabiy janrlarni o‘rganishda asar yaratilgan davrning tarixiy sharoitini yoritish muhimdir. Masalan, tarixiy roman yoki dostonlarni o‘rganishda muayyan tarixiy voqealar bilan bog‘lash o‘quvchilarning tushunchasini boyitadi. Masalan, epik turga mansub bo‘lgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanini tarix fani bilan integratsiya qilish mumkin.

Inklyuziv ta'lim islohotlari

Romanda XIX asrning birinchi yarmi, aniqrog‘i 1820-1840-illar oralig‘idagi tarixiy voqealar va ijtimoiy hayot aks etgan. 8-sinf “O‘zbekiston tarixi” fanida Xonliklar davri haqida yetarlicha ma’lumotlar berilgan.

Roman voqealari asosan:

- Qo‘qon xonligi davri
- Umarxon va undan keying hukmdorlar zamoni
- Buxoro va Qo‘qon o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar kuchaygan davrda kechadi.

2. Musiqa fani bilan integratsiya

Lirik turga mansub bo‘lgan g‘azal janrini o‘quvchilarga qiziqarli va oson o‘qitishda musiqa fani bilan integratsiya qilsak, ya’ni bog‘lab tushuntirsak bo‘ladi. Misol uchun Zahiriddin Muhammad Boburning adabiyot darsliklarida berilgan “ Xating aro uzoring sabza ichinda lola” deb boshlanuvchi g‘azali O‘zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov tomonidan qo‘shiq qilib kuylangan. Mashrabning “O‘rtar” radifli g‘azali ham mashxur xonandalar: Nasiba Abdullayeva, Shuhrat Qayumov, Jahingir Otajonov,Aziz Rajabiylar tomonidan kaver qilingan. Ma’lumot o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, Farhodjon Ahmedovning so‘zlariga ko‘ra, „O‘tgan kunlar“ filmi rejissori Yo‘ldosh A’zamov hamda film bastakori Manas Leviyev „O‘rtar“ qo‘shig‘ini film kulminatsiyasida ishlatishga qaror qilgan. Filmda qahramon Otabek suyuklisi Kumush hajrida fig‘on chekib, cholg‘uchidan „ajralish“ kuyini ijro etishni so‘rashi ortidan „O‘rtar“ qo‘shig‘i yangraydi. Tanqidchilar qo‘shiq „O‘tgan kunlar“ filmi uchun ideal tanlangan, degan fikrni ilgari surgan. Xususan, Hojiakbar Hamidov qo‘shiq „kinoga juda uyg‘un“, degan.

3. Tasviriy san’at bilan bog‘liqligi

Maktab darsligida berilgan Oybekning “Navoiy” romanini misol qilsak bo‘ladi. Asarda ko‘plab tasviriy manzaralar, portretlar va ranglar orqali ifoda mavjud. Miniatyura san’ati, rassomlik va me’moriy tasvirlar bilan bevosita bog‘lanadi. Oybek asarda Alisher Navoiy obrazini tasvirlashda rassomga xos aniqlik bilan ishlaydi. Masalan (mazmunan):

Inklyuziv ta'lim islohotlari

Navoiy siymosi sokin, nigohi chuqur ma'no bilan to'la, liboslarida nafislik va salobat mujassam…holatda tasvirlanadi.

Bu joyda o'quvchilarga "Shu tasvir asosida Navoiy portretini chizing" yoki: "Miniatyura uslubida tasvirlang" deb topshiriq berish mumkin. Darsda qo'llash mumkin bo'lgan metod ***"Matndan – rasmga"*** metodi. Matn o'qiladi, tasviriy unsurlar aniqlanadi, o'quvchi uni qog'ozda aks ettiradi, so'ng rasm va matn solishtiriladi.

- Bu metod:

Tasavvurini rivojlantiradi,

Badiiy tafakkurni kuchaytiradi,

Fanlararo integratsiyani ta'minlaydi.

4. Geografiya fani bilan integratsiya

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" tarixiy memuar (xotira) asarini misol qilishimiz mumkin. Boburnoma" asari geografik obyektlar, iqlim, tabiat va xo'jalik faoliyati tasvirining boyligi bilan adabiyot va geografiya fanlari integratsiyasi uchun muhim manba hisoblanadi. Asarda uchraydigan tog'lar (Hindikush, Pomir atroflari),daryolar (Amudaryo, Sirdaryo,Kabul darsi), iqlim va tabiat tasvirlari bunga misol bo'la oladi. Masalan (mazmunan) Bobur Farg'ona vodiysining tog'lari, suvlari, unumdor yerlarini batafsil tasvirlaydi.

- O'quvchilarga *asardan tabiat tasvirlarini topib, ularni geografiya xaritasida belgilash, Boburning harbiy yurish yo'llarini xaritada chizish, hududlar ketma-ketligini belgilash* topshirig'i beriladi. Bu topshiriq, xarita bilan ishlash ko'nikmasini va matnni tushunishni kuchaytiradi.

5. Nutq madaniyati fani bilan integratsiya

Drama asarlaridagi dialog va monologlar nutq madaniyatini shakllantirishda eng qulay badiiy vosita bo'lib, unda muomala, ohang va so'z tanlash madaniyati yaqqol namoyon bo'ladi. Namuna o'rnida Sharof Boshbekovning "Temir xotin" dramasi asosida ko'rib chiqamiz."Temir xotin" dramasidagi *Qo'chqor* va *Temir xotin* o'rtasidagi dialoglar teatr san'ati va nutq madaniyatini (**drama**– teatr san'ati+nutq madaniyati) integratsiya

Inklyuziv ta'lim islohotlari

asosida o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu dialoglar orqali o‘quvchilar intonatsiya, pauza, nutq ohangi va emotsional ta’sir kabi sahna nutqiga xos xususiyatlarni amaliy ravishda o‘zlashtiradilar. Bu asar adabiy janrlarning dramatik turiga misol bo‘ladi.

Xulosa

Maqolada yuqori sinf adabiyot darslarida adabiy janrlarni integratsion yondashuv asosida o‘rgatish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida integratsion yondashuv adabiyot ta’limining samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil ekanligi aniqlandi. Adabiy janrlarni boshqa fanlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish o‘quvchilarda badiiy asarni chuqurroq anglash, mustaqil fikrlash va tahliliy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilishi asoslab berildi.

Integratsion yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning faolligini oshirishi, ularning adabiy-estetik didi va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishi, bilimlarni tizimli va mustahkam egallashiga xizmat qilishi aniqlashtirildi. Mazkur yondashuv yuqori sinf o‘quvchilarida fanlararo bog‘liqlik asosida bilimlarni umumlashtirish va hayotiy vaziyatlarda qo‘llash malakasini shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy janrlarni integratsion yondashuv asosida o‘rgatish yuqori sinf adabiyot ta’limining mazmunini boyitadi, ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etishga imkon yaratadi hamda barkamol, keng tafakkurli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti. – Toshkent, 2021.
2. Saidahmedov N. Yangi pedagogik tehnalogiyalar. – Toshkent: “Fan”, 2003.
3. Babanskiy Yu.K. O‘qitish jarayonini optimallashtirish. – Moskva: Pedagogika, 1982.
4. Xudoyberganova G‘. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
5. Qodirov V. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
6. Boshbekov Sh. Temir xotin. – Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989.

inklyuziv ta'lim islohotlari

7. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2016.

8. 6-11-sinflar uchun Adabiyot darsliklari. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2011-2024.

9. www.ziyo.uz

10. www.tsul.uz

11. www.cyberleninka.ru

Inklyuziv ta'lim islohotlari